

**"QORAQALPOQ SHOIRI BERDAQ: TARIX VA MA'DANIYAT
TIMSOLI".**

*Toshkent Pediatriya Tibbiyat instituti, 2-pediatriya va Fundamental Tibbiyat fakulteti, 104-guruh talabasi
Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi.*

Email: jamoliddinovnanasibaxon7@gmail.com

Telefon: +998 93) 280 – 67 – 05

Annotatsiya: Ushbu maqola Qoraqalpoq shoiri Berdaqning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, uning tarixiy va ma'daniy merosi bugungi avlod uchun nechog'lik muhim ekanligini yoritadi. Maqolada Berdaqning she'riyatidagi milliy o'zlik, tarixiy haqiqat va insoniy qadriyatlar mavzusi tahlil qilinadi. Shuningdek, uning asarlarining Qoraqalpoq xalq ma'daniyati, adabiyoti va tilini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. Berdaqning she'riyati o'z zamonining ijtimoiy-siyosiy va ma'daniy hodisalarini aks ettirganligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqola, Berdaq ijodining nafaqat tarixiy ma'nodagi, balki zamonaviy ma'daniy rivojlanishdagi ahamiyatini anglashga yordam beradi. Maqola orqali o'quvchilar Berdaqning shaxsiyati va ijodi orqali xalqning ruhiy – ma'naviy olamini chuqurroq idrok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, ziyoli, oxun, rahna solish, fahm – farosat, ovul, afsona.

Bedaqning to'liq ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li. U 1827 – yilda hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida, kambag'al oilada tug'ilgan. U qoraqalpoq mumtoz adabiyotida tarkib topgan an'anaviy she'r shakillarini o'z ijodida samarali qo'llagan. Berdaq yoshligidanoq shoirlilik qobiliyati paydo bo'ladi va ertaklarni, afsonalarni va mashhur shoirlarning she'rlarini eshitib va qiziqib yurar edi. Uning she'rlarini o'sha vaqitdagi

mashhur baxshilar qo'shiq qilib aytardilar. O'zining "Ahmoq podsho" asarida Berdaq o'zini ertaksevarligini aytgan. O'n ikki – o'n uch yoshida Berdaq asarlar yozishni boshlaydi, birinchi asarlari oddiy mavzulardan iborat bo'lган. Keyinchalik esa u to'ylarda baxshi (qo'shiqchi) bo'lib xizmat qilgan.

Berdaq taxminan yigirma ikki yoshida muyten urug'idan yani, kentay avlodidan bo'lган Boymanqulning qizi Bibitxon ismli qizga uylangan. Bu xotindan to'rt qiz farzand tug'iladi, ularning orasida Hurliman birinchi qoraqalpoq ayol baxshi bo'ladi va yana o'g'lli bo'lган. Berdaq ko'p nabiralari bo'lган ulardan biri Hurlimanning o'g'li Qorajon, u ham baxshi bo'lган (1957 – yilda vafot etgan). Qorajon onasidan qo'shiqchilik qobilyatini meros qilib olgan va Berdaqning dutorida musiqa chalib, qo'shiq aytgan. Bu dutorni ya'ni Berdaqni dutorini Qorajon Qoraqalpoq muzeyiga bergen.

Tez orada Berdaq mashhur baxshi shoir bo'ldi va o'z she'rlarida musiqa tuzdi. U Qoraqalpog'istonning katta to'ylarida, bayramlarida, ovul va qishloqlarida xizmat qiladigan bo'ldi. Shoir O'rta Osiyoning o'sha vaqtdagi mashhur shaharlari: Xiva, Buxoro, Urganch va boshqa shaharlarida bo'ldi. Bu yerlarda u tarixiy joylar bilan tanishib chiqdi.

Bundan tashqari shoir Xorazm o'zbeklari va qoraqalpoq orasida nomdor Kunxo'ja, Ajiniyoz bilan tanish edi, Otesh degan shoir bilan do'stona munosabatda bo'lган. Berdaq o'z xalqining ziyolisi, bilimdon insoni bo'lishiga qaramasdan, o'sha davrda hech kim uni taqdirlamadi, ulug'lamadi, hattoki hurmatga ham ega bo'lmedi. Bu haqida u o'zining "Bo'lган emas" asarida shunday yozgan.

Dunyo dunyo bo'libdiki,
Podsho odil bo'lган emas.
Shoir qalam olibdiki,
She'rga to'g'ri solgan emas.

El qoraqalpoq bo'lgandan,
Xalq degan nomni olgandan.
Xaq taolo yo'l solgandan,
Tenglik nima bilgan emas.

Ey yoronlar sirtim butun,
Bag'rim yonib bo'ldi tutun.
Zolim oshirib o'z haddin,
Aslo rahm qilgan emas.

Iste'dodli shoir, mashhur baxshi, o'sha davrning boylari va boshqa amaldorlari tomonidan ta'qib ostiga olinar edi. Uning ajdodlari va o'zi ham kambag'al bo'lganligi uchun ular shoirni yo'q qilmoqchi bo'ldilar. Shoir kambag'al oilada tug'ilganini o'zining "Bilgaysiz" degan asarida yozib qoldirgan.

Og'a beklar, yoshim o'rta,
Aytmagayman so'zni jo'rtta,
Baxt izladim o'la – yo'rta,
O'ylab farqni bilgaysiz.

Og'a beklar, shoir bo'ldim,
Gul edim, sarg'aydim, so'ldim.
Dunyoga kelib ne ko'rdim,
Ohu – zorimni bilgaysiz.

Shunday qilib, Berdaq ko'p asarlarida o'zining fikrlarini, qiyinchiliklarni ko'rsatgan. Hayotining oxirgi kunlarida u bir qizidan ayrıldi. Qarilik chog'iga qaramasdan shoir asrlar yozishda davom ettiradi. Uning eng yaxshi asarlari "Ahmoq podsho", "Bo'lgan emas", "Bizga yordam ber" va boshqalar aynan shu yillarda yozilgan.

Tarixiy muammolarga shoir asosiy e'tiborini bergen, o'zining achinarli hayoti haqida yurtining xalq botirlari va qashshoqligi haqida yozgan. Bu yillar yozilgan asarlar, asosan xalqning mustaqillik uchun kurashganligi haqida bo'lgan. Shoir "Oydo'stbiy", "Omongeldi", "Ernazarbiy"¹ va boshqa ajoyib asarlar yozgan, shoirning bu asarlarida, vatanparvarlik haqida fikrlarini bildirganini ham ko'rshimiz mumkin.

Berdaqning ko'pgina asarlarida hayotimizning haqiqiy tomonlari

¹ Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987.b 81 – 86.

<https://journal-web.uz/>

ko'rsatilgan, Xiva xonligining hokimligi paytlari va yurtning rus imperiyasiga qarshi kurashish ham eslatilgan. Berdaqning ijodiy faoliyati, biylarning, boylarning, otaliqlarning, eshonlarning, oxunlarning va boshqa katta ma'murlarning, ya'ni boshqalarning fikrlari va dunyoqarashlariga qarshi edi. Ular shoirni o'z tomonlariga og'dirmoqchi bo'ldilar, buning uchun har qanday harakat qilishga tayyor edilar. Chunki, Berdaqning erkin va taqiqlangan asarlari xalqga ta'sir qilisgi mumkin edi. Lekin shoir o'z yo'lidan qaytmadi, shu sababli uni izdan ta'qib etganlar va u haqda Qoraqum eshonning ayg'oqchilari yetkazib turganlar. Bu haqda shoir o'zining "Oqibat", "Bilmadim", "Ber endi" degan asarida yozgan. U o'zining "Ber endi" degan she'rida quyidagilarni aytgan edi.

Berdimurod, so'zla so'zni,
Dushmaningga tikib ko'zni.
Ishontirib mingni – yuzni,
Vada ber endi, ber endi.

Chiqar bo'ldi, jonim tandan,
So'rasangiz, xalqim mandan,
Yaratgan, tilagim sandan,
Raxim qilgil zinhor endi.

Bu asarida shoir har bir aytgan so'zni nazarda tutish va ehtiyyotkorlik bilan bu zamonda yurishni aytgan, chunki har bir qadamingni ta'qib etadiganlar bor deb yozgan. Berdaq jasoratli va fahm – farosatli bo'lishiga harakat qiladi, qayerda va kim nima deyish kerakligini biladi. Lekin uni ta'qib etganlar uning ijodiga rahna sola oldilar. Unga qarshi rahbariyat uning yozgan asarlarini ma'nosiz deb e'lon qildi va shoirning o'zini esa Ollohning yo'lidan qaytgan muslimonlar sirasiga kirdilar.

Shuning uchun Berdaqning ko'pgina asarlari bugungacha yetib kelmagan, lekin bunga qaramasdan u o'z she'rlarini yozilgan shaklida yaratgan. Bu haqda bunga shoir har bir asarida eslatgan, hattoki qaysi yilda yozganini ham bildirgan. Masalan: "Ahmoq podsho" asarida u bir yil – u o'n ikki oy davomida

bo'sh vaqtini shu asarga sarf qilganini aytgan.

“Mening” degan asarida esa shoir o'zining baxtsiz hayoti haqida yozgan. “Mening hayotim” degan asarda shoir o'tgan hayoti haqida va bu yerda ham u asar qaysi yil yozilgani belgilangan.

Berdaq she'rlarini yozilgan va to'plangan shakli yaratilganini yana bir ma'lumot e'tirof etgan, chunki uning “Kulen bois” degan asari bizni kuniimizgacha yetib kelgan. Bu yerdan ma'lumki Berdaqning asarlari butunlay yo'q qilinmagan balki, ular ba'zilariga o'zgartirishlar kiritib yozilgan va saqlab qolningan. Shoirning hayoti davomida Qoraqalpog'iston tarixida ko'p hodisalar ro'y berga, bu hodisalar xalqning kelajagiga va taqdiriga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu Qoraqalpoq xalqining ozodlik uchun kurashi Ernazarbiylarning rahbarligida 1855 – 1856 – yillarda qoraqalpoq, o'zbek, turkman va qozoq mehnatkashlarini kurashi haqida edi.

Berdaq 1900 – yilda Petro – Aleksandrovsk shahriga Amudaryo bo'limi boshlig'i oldiga chaqirdilar, shoir bu taklifni qabul qildi va ixtiyoriy yo'lga tushadi. Ammo shoir yo'lning yarmida kasallikka duchor bo'ladi va uyiga qaytishga majbur bo'ladi. Birozdan so'ng esa shoir vafot etadi. Shuning bilan uning og'ir, azobli, baxtsiz hayoti tugaydi. Lekin uning hayoti jafo, azob – uqubatga qarshi, feodallar va boylarning o'zboshimchaliklariga qarshi kurash bilan o'tdi. U xalqni baxtli kelajagini o'ylab buyuk orzu bilan oldinga qadam qo'yayotgan edi. Berdaqning o'limi xalqqa juda qattiq ta'sir qildi, ayniqsa, shoirning o'lkasida yashovchi mehnatkash xalqiga.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O'rta Osiyo xalqlari hurfikirligi tarixidan” T.: Fan – 1990...
2. Бердахю избранноею Тошкент. 1980.стр. 30.
3. “O'zbek adabiyoti tarxi” T.: Fan – 1978.
4. Ahmedova.M. Falsafa (darslik), T.: 2006.
5. Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987.b 81 – 86.
6. http://www.berdaq.com/Contact_us/2.jpg